

**VIDEOREGISTRATOR ORQALI ANIQLANGAN JINOYATLARNING
EKSPERTIZA QILISH JARAYONIDAGI MUAMMOLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Krimanilistik
ekspertizalari kafedrası o‘qituvchisi kapitan*

G‘ulamov Sunnat G‘ulam o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
kunduzgi ta’lim 3-o‘quv kursi kursanti, safdor*

G‘abitov Diyorbek Quvonch o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kunduzgi ta’lim 3-bosqich
330- guruh kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqola videoregistrator orqali aniqlangan jinoyatlarni tergov va ochishda zamonaviy imkoniyatlarni tahlil qiladi. Maqola maqsadi — videoyozuvlarda qayd qilingan jinoyatlarning ochishda zamonaviy imkoniyatlari va ularni tadqiqotlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodikasi sifatida adabiyotlarni tahlil qilish, soha amaliyotidan olingan misollar va jinoyat-texnik ekspertizalarining taqqoslovchi tahlili qo‘llanildi. Natijalar videoregistrator yozuvlarining jinoyatlarni aniqlashda qat’iy dalil bo‘lishi, ammo ularning ishonchliligi va ketma-ketlikni tekshirish, manipulyatsiyalarga qarshi kriptografik himoya va sifatli texnik qayta ishlash orqali oshirilishini ko‘rsatadi. Mualliflar shuningdek, maxfiylik, qonunchilik va etik cheklovlar hamda texnik vositalarning xato va noto‘g‘ri aniqlovlar xavfini muhokama qiladi. Hozirgi vaqtda sodir qilinayotgan jinoyatlar tahlili va ularningoldini olishdagi ko‘rilayotgan choratadbirlar aniqlash.

Аннотация: В данной статье анализируются современные возможности расследования и раскрытия преступлений, выявленных с помощью видеорегистраторов. Цель статьи – выявить современные возможности раскрытия преступлений, зафиксированных на видеозаписях, и их исследование. Методологией исследования стали обзор литературы, примеры из отраслевой практики и сравнительный анализ судебных экспертиз. Результаты показывают, что записи видеорегистраторов являются надежным доказательством для раскрытия преступлений, но их надежность и согласованность могут быть повышены путем их проверки, криптографической защиты от манипуляций и высококачественной технической обработки. Авторы также обсуждают конфиденциальность, правовые и этические ограничения, а также риск ошибок и ложных срабатываний технических средств. Цель – проанализировать современные преступления и определить меры, принимаемые для их предотвращения.

Annotation: This article analyzes modern opportunities for investigating and solving crimes detected by video recorders. The purpose of the article is to identify modern opportunities for solving crimes recorded on video recordings and their research. The research methodology used was a literature review, examples from industry practice, and a comparative analysis of forensic examinations. The results show that video recorder recordings are solid evidence for solving crimes, but their reliability and consistency can be

improved by checking them, cryptographic protection against manipulation, and high-quality technical processing. The authors also discuss confidentiality, legal and ethical limitations, and the risk of errors and false detections of technical means. To analyze the current crimes and identify measures taken to prevent them.

Kalit soʻzlar: Videoregistrator, transport vositasi, tezlikni aniqlash vositalari, xavfsizlik, tahlil.

Keywords: Video recorder, vehicle, speed detection devices, security, analysis.

Ключевые слова: Видеорегистратор, транспортное средство, приборы контроля скорости, безопасность, анализ.

KIRISH

Soʻnggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat insonlar hayoti va kundalik faoliyatiga, balki huquqni muhofaza qilish organlarining ish faoliyatiga ham katta taʼsir koʻrsatmoqda. Ayniqsa, yoʻl harakati xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarni tezkor aniqlash va fosh etish jarayonlarida videoregistratorlar hamda boshqa turdagi raqamli videokuzatuv vositalarining qoʻllanishi nihoyatda kengaydi. Videoregistratorlar dastlab transport vositalarida yoʻl-transport hodisalarini qayd etish maqsadida oʻrnatilgan boʻlsa, bugungi kunda ular turli jinoyatlarni aniqlash, jinoyatchilarni identifikatsiya qilish, dalillarni toʻplash va tergov jarayonida ularni isbot vositasi sifatida qoʻllashda muhim manba sifatida eʼtirof etilmoqda. Shu boisdan ham, videoregistratorlar orqali aniqlangan jinoyatlarni ekspertiza qilish va videoyozuvlarning ishonchliligini aniqlash masalalari huquqni muhofaza qilish sohasida dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Videoyozuv dalil sifatida tan olinishi uchun ularning haqiqiyliги, uzluksizligi, tahrir qilinmaganligi va texnik jihatdan ishonchli ekanligi muhim. Shu nuqtai nazardan, videoyozuvlarni sud-tergov amaliyotida dalil sifatida qoʻllashda ekspertiza jarayoni alohida oʻrin tutadi. Chunki videoyozuvlarda montaj, tahrir yoki oʻzgartirishlar mavjud boʻlsa, ularning ishonchlilik darjasi pasayadi va bu sud qarorlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shuningdek, mazkur mavzuning dolzarbligi Oʻzbekiston Respublikasi olib borilayotgan sud-huquq islohotlari bilan ham chambarchas bogʻliqdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ‘Adolat - qonun ustuvorligida’ tamoyili asosida jinoyatlarni tezkor, adolatli va xolisona tergov qilishda raqamli dalillar, xususan, videoyozuvlardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, jinoyatlarni fosh etishda zamonaviy texnik vositalarni, ayniqsa videoregistratorlarni qoʻllashning huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, ekspertiza jarayonlarini yanada mukamallashtirish bugungi kunning talabidir. Jinoyat-protsessual faoliyatda dalillar toʻplash, saqlash va ularni baholash jarayoni adolatli sudlovni taʼminlashda asosiy oʻrin tutadi. Shu boisdan, har qanday dalilning huquqiy kuchi, ishonchlilik darajasi va sudda qoʻllanish imkoniyati aniq qonunchilik normalari bilan belgilanadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarning rivojlanishi natijasida dalillar orasida raqamli axborot manbalari, xususan videoregistrator yozuvlari tobora keng oʻrin egallamoqda. Videoregistratorlar orqali olingan yozuvlar jinoyat sodir etilgan payt, joy, shaxslar, transport vositalari va boshqa moddiy belgilarning aniqlanishiga xizmat qilishi

mumin. Shu sababli ularni moddiy dalil sifatida tan olish masalasi xalqaro va milliy huquq amaliyotida alohida e'tibor talab qiladi. Biroq amaliyotda ushbu talablarga rioya etish hamisha oson emas. Chunki videoregistratorlar ko'pincha avtomatik tarzda ishlaydi, fayllar o'z vaqtida saqlanmasa yoki ustiga yozilsa, dalilning haqiqiyliги yo'qoladi. Bundan tashqari, ayrim holatlarda videoyozuvlarni montaj yo'li bilan o'zgartirish yoki soxtalashtirish texnik jihatdan juda oson. Shu sababli ularni dalil sifatida tan olishdan oldin maxsus texnik ekspertiza o'tkazilishi shart. Sud amaliyotida videoregistratorlar orqali olingan yozuvlar ko'plab ishlarning hal qiluvchi daliliga aylangan. Masalan, yo'l-transport hodisalari bo'yicha sudlarda aksariyat qarorlar aynan videoyozuvlar asosida chiqariladi. Chunki inson ko'rsatmasi subyektiv bo'lishi mumkin, biroq texnik vosita qayd etgan ma'lumotlar odatda aniq va obyektiv hisoblanadi. Biroq, ayrim jinoyat turlarida — masalan, talonchilik, bezorilik, transport vositasini boshqarish qoidalarini buzish kabi holatlarda — videoregistrator yozuvlarini dalil sifatida tan olishda turli muammolar kelib chiqadi. Ayrim hollarda yozuvning sifati past, ba'zan esa jinoyat sodir etilgan paytda kamera burchagi yoki yorug'lik yetarli bo'lmaydi. Natijada videoyozuv jinoyatning barcha holatlarini to'liq aks ettira olmaydi. Videoyozuvlarni dalil sifatida tan olish jarayonida ularning autentikligi, ya'ni asl holatda saqlanganligi isbotlanishi zarur. Buning uchun sud-ekspertiza muassasalari tomonidan videotexnik o'tkaziladi. Ekspert yozuvning fayl metama'lumotlarini, kadrlar uzluksizligini, tovush va tasvir mosligini, montaj izlarini, texnik parametrlardagi nomuvofiqliklarni aniqlaydi. Agar ekspertiza natijasida yozuvda tahrir yoki o'zgartirishlar aniqlansa, bunday dalil sud tomonidan ishonchsiz deb topiladi. Shu bilan birga, agar ekspertiza yozuvning haqiqiyligini tasdiqlasa, u holda bu material jinoyat ishida hal qiluvchi isbot manbai bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertiza markazi amaliyotida so'nggi yillarda videoyozuvlarni texnik tahlil qilish bilan bog'liq ishlar soni ortib bormoqda. Bu esa videoregistratorlarning hayotimizda, xususan, jinoyatchilikka qarshi kurashda tutgan o'rni tobora oshib borayotganini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda ham videoregistratorlar dalil sifatida keng qo'llaniladi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarda body kamera (tana kameralari) va dash kamera (avtomobil videoregistratorlari) yozuvlari sudga to'liq huquqiy kuchga ega. Ularni dalil sifatida tan olish uchun muhim shartlar belgilangan: yozuvning uzluksizligi, saqlash zanjiri ("chain of custody") buzilmasligi va texnik ekspertiza bilan tasdiqlanishi. O'zbekiston amaliyotida ham ushbu tajribani joriy etish, videoyozuvlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, ularning saqlanish, taqdim etilish va ekspertiza jarayonlarini yagona standart asosida yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardan biridir. Hozirda O'zbekiston qonunchiligida videoregistrator yozuvlarining dalil sifatida qo'llanish tartibi umumiy qoidalarga asoslanadi, ammo alohida normativ-huquqiy hujjat bilan batafsil tartibga solinmagan. Shu sababli quyidagi yo'nalishlarda qonunchilikni takomillashtirish zarur:

- Videoyozuvlarni saqlash va taqdim etish tartibi bo'yicha yagona standart ishlab chiqish;
- Videoyozuvlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar va uskunalarni sertifikatlash;

- Ekspertiza o'tkazish vakolatli organlar doirasini kengaytirish;

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – videoregistratorlar orqali aniqlangan jinoyatlarni ekspertiza qilish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish, ularning huquqiy va texnik asoslarini chuqur o'rganish hamda ushbu sohani takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Videoregistratorlar yordamida olingan videoyozuvlar ko'plab jinoyatlarni tezkor aniqlash va ularning isbotini ta'minlash imkonini beradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, videoyozuvlarning sifat darajasi, ularning haqiqiylikni aniqlash va sudda dalil sifatida qo'llash mexanizmlari hanuz yetarli darajada mukammal emas. Shu sababli bu sohada ilmiy tahlil va huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur. Ishning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda raqamli dalillar, xususan videoyozuvlarning jinoyat-protsessual huquq tizimidagi o'rni va ularni ekspertiza qilishning ilmiy asoslari tizimli yoritiladi. Bu holat jinoyat-protsessual isbotlash nazariyasini yanada boyitadi.

Videoregistratorlar — bu raqamli axborotni (tasvir, tovush) yozib oluvchi va saqlovchi texnik vositalardir. Ular harakatdagi ob'ektni, hodisani yoki jarayonni real vaqtda qayd etish imkonini beradi. Bu esa, jinoyat sodir bo'lgan paytdagi holatni obyektiv tarzda tiklash va dalil sifatida foydalanish imkonini yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, videoregistratorlar jinoyatlarni fosh etish va sud-tergov amaliyotida dalil to'plashning zamonaviy vositasiga aylangan. Ularning huquqiy maqomi Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda hali ham turli texnik va protsessual muammolar mavjud. Shu sababli, videoyozuvlarni dalil sifatida qo'llashni yanada samarali qilish uchun milliy qonunchilikni takomillashtirish, ekspertiza tartibini aniq reglamentlash va xalqaro tajribalarni joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ”
2. “ Transport to'g'risidagi Qonun” 2021-yil 9-avgust 706 – sonly ” PQ-122
3. “ PQ-122 2022-yildagi 8-fevraldagi Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida ”
4. “ Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi 11-noyabrdagi 713-sonli qarori ”
5. “Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 09.03.2021 yildagi 125-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori ”
6. “ Wikipedia ” internet sayti ”